

22. Ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish

Yondosh mavzu:
Toshkent viloyati

Katta sonlar,
tenglamalar,
siniq chiziq uzunligi



1. Sonlarni o'qing. Ularda nechta to'liq o'nlik, yuzlik, minglik, o'n minglik bor?

5 367, 37 048, 80 003 940, 900 000 001

2. Misollarni yeching va qaysi shahar Toshkent viloyatining ma'muriy markazi ekanini bilib oling.

A $570\,309 + 237\,806$

U $109\,287 + 287\,109$

O $207\,500 + 470\,500$

N $178\,004 + 283\,007$

R $360\,090 - 183\,045$

F $870\,356 - 186\,989$

T $198\,178 - 35\,289$

Sh $776\,900 - 200\,099$

461 011	396 396	177 045	808 115	683 367	576 801	678 000	461 011
---------	---------	---------	---------	---------	---------	---------	---------

3. Tenglamalarni yeching. Tekshiring.


$$x + 280 = 530 + 380$$

$$845 - z = 145 + 397$$

$$y - 729 = 135 + 271$$

$$361 + t = 967 - 103$$


4. Siniq chiziqning bo'g'inlarini o'lchang. Ularning uzunligini millimetrlarda yozing. Siniq chiziqning butun uzunligini toping.



22. Ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish



5. Katta Chimyon cho'qqisi tekislikdan 3 309 m balandlikda joylashgan. Unga chiqish juda qiyin. Shuning uchun balandlikni ko'rsatadigan belgi pastroqda – 3 275 m balandlikda qo'yilgan. Belgi cho'qqidan qancha pastda o'rnatilgan?



6. Uchta guruh katta Chimyon tog'i bo'ylab sayohatga yo'lga tushdi. Birinchi guruhda 18 nafar sayyoh bor, ikkinchi guruhda birinchidagiga qaraganda 7 nafar ko'p, uchinchi guruhda esa ikkinchi guruhdagiga qaraganda 5 nafar kam sayyoh bor. Hammasi bo'lib necha nafar sayyoh sayohatga chiqqan?



7. Sayyohlik yo'nalishi 3 qismga bo'lingan. Birinchi qismning uzunligi 3 785 metr, ikkinchi qismning uzunligi undan 1 347 metr kam, uchinchi qismning uzunligi esa birinchi qismning uzunligidan 2 058 metr ortiq. Yo'nalishning umumiy uzunligi qancha?



8. Taqqoslang.

a) Qaysi cho'qqi baland?

Katta Chimyon
(3 309 m)



Kichik Chimyon
(2 097 m)

b) Qaysi daryo uzun?

Chirchiq
(155 km)



Piskom
(70 km)

d) Qaysi ko'lda suv ko'p?

Urung'och
(4 200 000 kub metr)



Shovurko'l
(3 890 000 kub metr)

22. Ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish



9. Blits savollar. Ifodalar yozing va ularning qiymatini toping.

- a) Dam olish maskaniga Toshkent shahridan 60 nafar dam oluvchi keldi. Ular Toshkent viloyatidan kelganlarga qaraganda 2 marta ko'p, boshqa viloyatlardan kelganlardan esa 20 nafar kam. Dam oluvchilar soni jami qancha?
- b) Binoda 70 ta xona mavjud. Har bir xona 2 kishiga mo'ljallangan. Agar binoda 68 kishi bo'lsa, unga yana qancha odamni joylashtirish mumkin?
- d) Dam olish maskanining oshxonasida to'rt kishilik stollar bor. Agar 10 ta stol band bo'lsa va undan 3 marta ko'p bo'sh stol bo'lsa, oshxonada jami nechta joy bor?



10. Ikkita guruh sayohatga otlandi. Birinchi guruh sayohatchilari ikkinchi guruhdagidan 16 nafarga ko'p. Ikkala guruh teng bo'lishi uchun birinchi guruhdan necha kishini ikkinchi guruhga o'tkazish kerak?



11. Hisoblang va tog' sportining qiziqarli, biroq murakkab turi nomini bilib oling.

A $70 \cdot 8 + 9 \cdot 90$

I $30 \cdot 8 - 50 \cdot 4$

Z $70 \cdot 70 + 20 \cdot 3$

L $60 \cdot 90 - 80 \cdot 5$

M $(3 + 7) \cdot 22$

N $(25 - 5) \cdot 140$

P $5 \cdot 57 + 5 \cdot 3$

O $6 \cdot 14 + 6 \cdot 16$

1 370	5 000	300	40	2 800	40	4 960	220



12. Chimyondagi kanat yo'lining uzunligi 800 m. Beldersoydagi kanat yo'li undan 1 400 m uzun. Har bir kanat yo'lga o'z uzunligidan 2 marta uzunroq arqon kerak bo'ladi. Bu yo'llarni ta'mirlash uchun 9 000 m arqon sotib olindi. Ta'mirdan keyin necha metr arqon ortib qoladi?